ANDIJON VILOYATI ASAKA TUMANI HOKIMINING QARORI

Asaka tuman, Sohil bo'yi ko'chasi, 2-uy

2023 - yil 7 - dekabr 136-1-17-Q/23 Asaka tumani hokimligi

Asaka tumanidan o'tuvchi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llariga transport harakatlarini tartibga solish maqsadida 3.27 "To'xtash taqiqlangan" yo'l belgisi o'rnatilishiga ruxsat berish to'g'risida

Asaka tumanidan o'tuvchi avtomobil yo'llarida transport vositalarining harakatlanishida tirbandliklar yuzaga kelishining oldini olish, piyodalar va transport vositalarining harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida, Asaka tuman Ichki ishlar bo'limi yo'l harakati xavfsizligi bo'linmasi boshlig'ining 2023-yil 4-sentyabrdagi 7/6-175-sonli aloqa xati ko'rib chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-iyuldagi "2022-2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo'ljallangan Xavfsiz va ravon yo'l" umummilliy dasturini tasdiqlash to'g'risidagi PQ-316-sonli qarori, "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi Qonunining 7- va 20-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi VM-172-sonli va 2013-yil 10-apreldagi "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi O'RQ-348-sonli Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Asaka tuman Ichki ishlar bo'limi yo'l harakati xavfsizligi bo'linmasi boshlig'ining 2023-yil 4-sentyabrdagi 7/6-175-sonli aloqa xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Asaka tumanida transport vositalarining harakatlanishida tirbandliklar yuzaga kelishining oldini olish, piyodalar va transport vositalarining harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida:

- 4R-112 "Farg'ona halqa yo'li" avtomobil yo'lining 156-160 kilometrlari ("Shodiyona", "Fayz shashliklar" va "Zaytun" ovqatlanish maskanlarining) oralig'iga;

- 162-163 Pk+850 kilometrlari (Salqin ichimliklar va "Davr" ovqatlanish maskanining) oralig'iga;

- 163 Pk+900-164 Pk+500 kilometrlari ("Anxor" va "Lazzat" ovqatlanish maskanlarining) oralig'iga;

- 4R-138 "Shahrixon-Asaka-Marhamat-Qizilqiya" avtomobil yo'lining "Baraka" va "Hamdo'stlik" mahalla fuqarolari yig'inlaridan o'tuvchi qismi (Asaka Dehqon (oziq-ovqat) bozori oldidagi piyodalar yer osti yo'li hamda "Bobur shox" tantanalar saroyining) oralig'iga;

- 4R-112E "Asaka aylanma" avtomobil yo'lining 0-1 kilometrlari ("ASR-80" ovqatlanish maskani) oralig'iga 3.27 "To'xtash taqiqlangan" yo'l belgilari o'rnatilishiga ruxsat berilsin.

3. "Asaka tuman yo'llardan foydalanish" unitar korxonasi tomonidan tegishli yo'l belgilari o'rnatilishi ta'minlansin.

4. Asaka tuman Ichki ishlar bo'limi yo'l harakati xavfsizligi bo'linmasi ushbu hududda harakatlanuvchi transport vositalari tomonidan mazkur yo'l belgilariga qat'iy rioya qilinishini hamda harakat xavfsizligini ta'minlasin.

5. Asaka tuman hokimligi matbuot xizmati ushbu qaror mazmunini axborot vositalarida yoritilishini, Umumiy bo'lim qarorni bir kunlik muddatda davlat hisobiga olish maqsadida tuman Adliya bo'limiga va tegishli tashkilot rahbarlariga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari - shahar hokimi U.Baltabayev va tuman hokimining o‘rinbosari D.Mamatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **N.N.Mo‘minov**